Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 316
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

ZAMONAVIY JAMIYATDA NIKOHGA MUNOSABAT SHAKLI VA NIKOH MOTIVLARI

Muxlisa Azizjon qizi Ergashova*
O'zbekiston Respublikasi Oila va xotin qizlar qo'mitasi huzuridagi "Oila va gender" ilmiy-tadqiqot instituti 1-kurs tayanch doktoranti
✉ mukhlisaergashova816@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu tezisda bugungi kunda jamiyatimizdagi nikohga munosabat, milliy an'analar va zamonaviy qarashlarimiz, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oilaviy hayotga tayyorgarlik jarayonida muhim bo'lgan psixologik xususiyatlar mosligi va nikoh motivlari, oilaviy munosabatlarda nikoh motivlarining ahamiyati, nikoh qurish motivlari borasida ko'plab olimlar olib borgan ilmiy izlanishlar va ularning mazmun- mohiyati aks ettirilgan.

Kalit so'zlar

nikoh qurish motivlari, qadriyatlar, temperament, psixologik moslik, xarakter, muloqot.

DOI: 10.5281/zenodo.21835557

Kirish.

Hammamizga ayonki, zamonaviy jamiyatda iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy o'zgarishlar nikoh institutiga bo'lgan munosabatni sezilarli darajada o'zgartirmoqda. Globallashuv, axborot texnologiyalarining rivojlanishi, ta'lim darajasining oshishi hamda shaxsiy erkinlikka bo'lgan intilish nikoh qurish qarorlariga yangi yondashuvlarni olib kirmoqda. Shuningdek, bugungi kunda jamiyatimizda kech oila qurish, nikohsiz birga yashash kabi holatlar tobora avj olmoqda. Milliy an'analar va zamonaviy qarashlar o'rtasida qarama-qarshilik yoshlar ongida nikohga nisbatan ikkilanma munosabatni keltirib chiqarayotganiga hammamiz guvohmiz. Shu sababli nikohga bo'lgan zamonaviy munosabatlarni o'rganish oilaviy muammolarni oldini olish, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, milliy va ma'naviy qadriyatlarimizni asrab-avaylash bizning asosiy burchlarimizdan biri va bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Bilamizki, nikoh bu – jamiyat tomonidan qadrlanadigan va qo'llab-quvvatlanadigan institut. U insonlarning ijtimoiy hayotini tartibga soladi, farzandlar tug'ilishi va ularning tarbiyasi uchun barqaror muhit yaratadi. Bu ikki shaxsning hayot yo'lini birga bosib o'tish haqidagi qarori, ya'ni ular o'zaro muhabbat, hurmat, ishonch va bir-biriga sodiqlik asosida birga yashashga bel bog'laydilar. Bu jarayonda o'zaro moslik, sabr-toqat, murosaga kelish kabi ko'nikmalar muhim rol o'ynaydi. Shu sababli bugungi kunda nikozha kirishishda psixologik moslik judayam zarur faktor hisoblanadi. Psixologik moslik o'zi bu ikki insonning xarakteri, fe'l-atvori, emotsional ehtiyojlari, hayotiy qarashlari va qadriyatlarining bir-biriga yaqinligi, uyg'unligidir. Bu moslik er-xotin o'rtasidagi barqarorlik va baxtni ta'minlovchi asosiy omillardan biridir. Ular quyidagilar hisoblanadi:

1.Temperament va xarakter mosligi. Har bir inson ma'lum temperamentga ega. Xoleriklar faol, tezkor, sangviniklar ijtimoiy va optimistik, flegmatiklar sabrli va tinch, melankoliklar esa hissiyotlarga boy. Turli temperamentga ega insonlar turmush qurganda, ular bir-birining holatini tushunishi, muloqotga kirishish uslublarini moslashtirishi kerak bo'ladi.

2. Qadriyatlar va dunyoqarash mosligi. Qadriyatlar – bu inson hayotida muhim deb hisoblaydigan tamoyillaridir. Diniy e'tiqod, madaniyat, farzand tarbiyasiga yondashuv, moliyaviy qarashlar mos bo'lishi kerak.

3. Muloqot ko'nikmalari va murosaga kelish. Samarali muloqot psixologik moslikning asosi hisoblanadi. Juftliklar bir-birining fikrini eshitish, tushunish va tan olishga qodir bo'lishi lozim.

4. Tarbiya va madaniy muhit. Turmush o'rtoqlarning qanday oilada voyaga yetgani ularning turmush tarziga bevosita ta'sir qiladi. Bir-birining oilaviy an'analarini qabul qilishga tayyor bo'lgan juftliklar o'zaro uyg'unlikka erishishadi. [1].

Demak yuqoridagi mosliklar yetishmovchiligi turli oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan, juftliklar orasida turli nizolar, tushkunlik holati ko'payishi mumkin. Bu holatlarni oldini olish uchun nikoh qurish paytida bu omillarga alohida ahamiyat berish lozim. Ikkala yoshning temperament, xarakter xususiyatlari, qadriyatlari bir-biriga o'xshash yoki yaqin bo'lishi, muloqotchanlik darajasi me'yorda bo'lishi va uydagi muhitning o'xshashligi oilaning yanada mustahkam bo'lishiga yordam beradi.

Zamonaviy insonning ijtimoiy tajribasi, uning dunyo haqidagi bilimlari tobora xilma-xil, ziddiyatli, ' 'uzuq-yuluq' ' bo'lib borar ekan, shaxsning o'z o'rnini erkin topish maydoni, binobarin, uning hayotiy muammolari maydoni ham kengaya boradi. Jamiyatning va uning ' 'quyi yacheyka' 'laridan bo'lgan oilaning rivojlanishi har xil oilaviy muammolar ko'payishiga va oqibat natijada zamonaviy oilani umumiy tanazzuliga olib keladi. Bu tarzda tanazzulga yuz tutishning ijtimoiy-psixologik sabablarini tahlil qilib ko'rsak, yuqoridagi omillarga qo'shimcha tarzda oiladagi qadriyatlar muvofiqligi, er-xotinlarning rolli ustanovkalari, oilaning saqlanishini ta'minlovchi motivlar, ular o'rtasidagi fikrlarning nomutanosibligiga olib keluvchi omillarni, ularning hamkorligini ifodalovchi holatlarga aniqlik kiritish lozim bo'ladi. Shu sababli chet el va o'zbek olimlari tomonidan nikoh va oila munosabatlarni, nikoh qurish motivlari haqida ko'plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bunday izlanishlarga S.V.Kovalev, N.N. Obozev kabi chet el olimlari, G'.B.Shoumarov, V.M.Karimova, M.G.Davletshin, N.A.Sog'inov, A.Shojalilov, T.M.Adizova, F.R.Ro'ziqulov kabi respublikamiz olimlari tomonidan olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlari misol keltirishimiz mumkin. Ulardan N.N.Obozov oilaviy hayotdan qoniqmaslik, nikohning buzilishi va beqarorligini belgilovchi sabablarni er bilan xotin o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy funksiyaning tenglashtirilishidandir deb tushuntiradi. S.V.Kovalevning ta'kidlashicha, yoshlarda oilaviy hayot va turmush tarziga xos to'g'ri tasavvurlar yetarli emasligi sababli turmush qurganlarida oila-nikoh munosabatlaridan qoniqmaslik holatlari ko'p uchraydi deb tushuntiradi. [2].

Yuqoridagi ilmiy izlanishlar va zamonaviy qarashlarning barchasi bugungi kundagi nikoh-oila insitutida sodir bo'layotgan barcha muammoli vaziyatlar va holatlarga yechib berib, bu vaziyatlarni iloji boricha vujudga keltirmaslikka va oldini olishga yordam berishi mumkin.

Shuningdek, insonning oila qurishga bo'lgan intilishida bir qator psixologik drayverlar ham yotadi. Mashhur psixolog R. Sternberg nikohni uchta asosiy komponent – ehtiros, yaqinlik va majburiyat birlashmasi sifatida tavsiflaydi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, nikohning mustahkamligi dastlabki motivatsiyaga bog'liq. Agar nikoh faqat moddiy manfaat yoki ijtimoiy bosim (' 'vaqting o'tyapti' ') ostida qurilsa, oilaviy tizim birinchi jiddiy qiyinchilikdayoq inqirozga yuz tutadi. Aksincha, emotsional yaqinlik va umumiy qadriyatlar asosida qurilgan ittifoqlar uzoq muddatli barqarorlikni ta'minlaydi. Zamonaviy dunyoda oilani saqlab qolish uchun an'anaviy qadriyatlarni saqlagan holda, demokratik muloqot va empatiya qobiliyatlarini rivojlantirish hayotiy zaruriyatdir. Nikoh shunchaki rasmiy qadam emas, balki sevgi, hamkorlik, shaxsiy o'sish va oilaviy baxtga erishish yo'lidagi psixologik motivlar asosida quriladigan murakkab jarayondir. [3]. Ya'ni bugungi kunda yoshlar o'zlarining zamonaviy qarashlari bo'lgan moddiyat yoki bosim sababli nikohga kirishish holatlari talaygina. Lekin hissiy yaqinlik va milliy qadriyatlar asosida oilani barpo etish yanada to'g'ri qaror hisoblanmoqda.

O'zbek oilmlari Akramova va Haydarov ham bu borada o'zining izlanishlarini olib borib, bugungi kunda oila qurishda shakllanayotgan qarash va tahlillarni keltirib o'tishgan. F.A.Akramova ilmiy tadqiqot ishlarida yoshlarni oilaga tayyorlashning ijtimiy-psixologik xususiyatlarini o'rganishga qaratgan. Muallif yoshlarni oilaga tayyorlashda nikohga yetuklik omillari muhim o'rin tutishini ta'kidlab, ular qatoriga yoshlarning oilaviy hayotga ma'naviy yetukligi, ularning oila qurish motivlari, nikoh qurish yoshiga oid fikrlari va bo'lg'usi oilaviy hayotlari haqidagi tasavvurlarini kiritadi. Olimaning fikricha, nikohga yetuklik tushunchasi o'ta mu-

rakkab va nisbiy tushunchadir. Chunki odam rivojlanib, takomillashib boruvchi, o‘z ma’naviy, axloqiy rivojida muntazam ravishda yangiliklarni o‘ziga singdiruvchi mavjudotdir. Psixolog olim I.O.Haydarov esa yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-psixologik muammolarini o‘rganib, nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqlilik asosida tashkil etilishi, u bir-biriga begona insonlarning qarindoshlik rishtalari bilan bog‘lashini ta’kidlab o‘tgan. Shu o‘rinda kelajakda turmush qurishini niyat qilgan yigit va qizlar o‘zlarini doimo turmushga ota yoki ona bo‘lishga tayyorlab borishlari lozimligi, buning uchun birinchi navbatda, o‘z sog‘liklari, tanlangan juftlarining xarakterini, dunyoqarashi o‘ziga qay darajada mos kelishi to‘g‘risida qayg‘urishi kerakligini e’tirof etadi.[4]. Ikkala olim qarashlarini jamlasak, oila qurishda eng avvalo oila haqidagi tasavvurlar va motivlar, yoshlarning yetuklik darajasi va yoshlar xarakteri, dunyoqarashi bir-biriga mos kelishi lozimligi muhim omil bo‘lib xizmat qilar ekan.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni nikoh qurish yoshiga yetgandan keyin emas balki, ularning bolalik davridan boshlab turmush mazmunini anglashlariga e’tibor qaratish lozim. Ayniqsa, bugungi kunda oilalarda farzandlar soni kam bo‘lishi oqibatida ota-onalarning g’amxo‘rligi va bolalariga ortiqcha yuk qoldirmaslik uchun harakatlari, asrab-avaylashi, erkalashi kabilar yoshlarda infantilizmning rivojlanishiga olib kelmoqda. Ularni faqat erta yoshdan boshlab mustaqillikka o‘rgatish, o‘z xatti-harakatlariga mas’uliyatni tarbiyalash, turli oilaviy muammolar va og‘ir oilaviy vaziyatlarni hal qilishga jalb qilish asosida infantilizmning oldini olish mumkin. Bugun yoshlarda moliyaviy mustaqillikka erishish istagi bir muncha yuqori bo‘lib, bu nikohni kechiktirishga olib kelishini hisobga olsak, erta nikohlarning oldini olish uchun ham eng yaxshi imkoniyat hisoblanadi. Albatta, moliyaviy ahvolni yaxshilash jamiyatning bir ijtimoiy qatlamidan ikkinchisiga o‘tish istagi yoshlar orasida turmush qurishning ustuvor pragmatik tendentsiyasi mavjud. Oilaviy hayotning uyg‘unligi har bir oila a’zosining shaxsiy salohiyatni ro‘yobga chiqarish imkoniyatini oshiradi. Zero, oila farovonligi, asosan, yoshlarning nikoh va oilaga tayyorlik darajasiga bog‘liq bo‘ladi. [5]. Demak, zamonaviy qarashlar shakllanayotgan bir davrda biz yoshlarimizga milliy va ma’naviy qadriyatlarimiz muhim o‘rin tutishligini, oila qurish jarayonida bir-birlarini tushinish,empatiya qobiliyati, xarakater, xususiyatlarni bir-biriga mos kelishi, muloqotning nechog‘lik muhim ekanligini bosqichma-bosqich anglatib borishimizni taqozo etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Narmetova Yulduz Karimovna., Qobilova Madina Yufjonovna; Nikoh va oilaviy munosabatlarda psixologik moslik; CENTRAL ASIAN JOURNAL OF ACADEMIC RESEARCH.
2. Mamatova Nazira Djurakulovna., Nikoh-oila munosabatlari barqarorligini ta‘minlashning ijtimoiy-psixologik xususiyatlari; Zamonaviy ta’lim 2023, 12 (133)
3. Xasanova Dilorom Xotam qizi., Oila va nikoh psixologiyasi; Modern education and development.
4. Xudoyqulova Shoira Xolmurod qizi., Yaziyev Erkin Sa’dullayevich ; O‘zbekiston psixologiyasida oilaviy munosabatlar muammolarining o‘rganilishi; Pedagogik va psixologik tadqiqotlar jurnali,1-jildi, 11-son.
5. Kayumova Go‘zal Narzullayevna., Yoshlarda nikoh motivlari va oila haqidagi pozitiv tasavvurlarni shakllantirish modeli; PEDAGOGIK MAHORAT Ilmiy-nazariy va metodik jurnal 7-son (2025-yil, iyul)